



UDK: 321.01(575.1)

Zebiniso AHMADOVA,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
E-mail: ahmadova.zebiniso@bui.uz

Fanlar Akademiyasi tarix instituti, tarix fanlari doktori D.Jamolova taqrizi asosida

“UZBEKISTAN – 2030” STRATEGY – THE PEOPLE’S STRATEGY

Annotation

The article analyzes the social, political, and economic reforms implemented in recent years under the theme “New Uzbekistan – A People-oriented and Humanitarian State.” Under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, the state’s policy based on people-oriented and humanitarian approaches is expanding. The aim is to protect human rights, improve the standard of living, and bring state governance closer to the people. The article highlights the main directions of the reforms aimed at serving the public interest, as well as achievements in education, healthcare, social protection systems, and other fields. Furthermore, it discusses the role of social justice and sustainable development in shaping a new Uzbekistan. The people-oriented and humanitarian policies are contributing to the strengthening of Uzbekistan’s social system, maintaining stability in society, and increasing the people’s trust in themselves. The article outlines the steps taken and the significant changes made on the path to the development of the new Uzbekistan, and indicates what new measures should be adopted in the future to transform it into a people-oriented and humanitarian state.

Key words: Humanitarian state, Reforms, Human rights, Social justice, Sustainable development, Reforms in education and healthcare, Public interest, State governance, Population welfare, Social protection system, Social stability, Shavkat Mirziyoyev, People’s trust, Economic reforms, Social system, Development strategy, Democratic changes.

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030» – НАРОДНАЯ СТРАТЕГИЯ

Аннотация

В статье анализируются социальные, политические и экономические реформы, проведённые в последние годы в рамках темы «Новый Узбекистан – государство, ориентированное на народ и гуманистические ценности». Под руководством президента Шавката Мирзиёева государственная политика, основанная на народно-ориентированном и гуманистическом подходах, расширяется. Цель реформ — защита прав человека, повышение уровня жизни населения и приближение государственного управления к народу. В статье выделяются основные направления реформ, направленные на удовлетворение общественных интересов, а также достижения в сферах образования, здравоохранения, систем социальной защиты и других областях. Кроме того, рассматривается роль социальной справедливости и устойчивого развития в формировании нового Узбекистана. Народно-ориентированная и гуманистическая политика способствует укреплению социальной системы Узбекистана, поддержанию стабильности в обществе и повышению доверия народа. Статья освещает предпринятые шаги и значимые изменения на пути развития нового Узбекистана, а также указывает на новые меры, которые необходимо принять в будущем для превращения страны в государство, ориентированное на народ и гуманистические ценности.

Ключевые слова: Гуманистическое государство, Реформы, Права человека, Социальная справедливость, Устойчивое развитие, Реформы в сфере образования и здравоохранения, Общественные интересы, Государственное управление, Благополучие населения, Система социальной защиты, Социальная стабильность, Шавкат Мирзиёев, Доверие народа, Экономические реформы, Социальная система, Стратегия развития, Демократические изменения.

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI

Annotatsiya

Maqolada “Yangi O‘zbekiston – Xalqchil va Insonparvar Davlat” mavzusi atrofida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy, siyosiy, va iqtisodiy islohotlar tahlil qilinadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rahbarligida davlatning Xalqchil va insonparvar yondashuvlarga asoslangan siyosati kengaymoqda. Maqsad, inson huquqlarini himoya qilish, aholi turmush darajasini oshirish va davlat boshqaruvini Xalqqa yanada yaqinlashtirishdir. Maqolada islohotlarning Xalq manfaatlariga qaratilgan asosiy yo‘nalishlari, ta‘lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya tizimlari va boshqa sohalaridagi yutuqlar ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishning yangi O‘zbekistonni shakllantirishdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Xalqchil va insonparvar siyosat O‘zbekistonning ijtimoiy tizimini yanada mustahkamlashga, jamiyatdagi barqarorlikni saqlashga, va Xalqning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam bermoqda. Maqola, yangi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lida amalga oshirayotgan qadamlari va ulkan o‘zgarishlarni yoritib, kelajakda Xalqchil va insonparvar davlatga aylanish uchun qanday yangi chora-tadbirlar ko‘rilishi kerakligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Insonparvar davlat, Islohotlar, Inson huquqlari, Ijtimoiy adolat, Barqaror rivojlanish, Ta‘lim va tibbiyot islohotlari, Xalq manfaatlari, Davlat boshqaruvi, Aholi farovonligi, Ijtimoiy himoya tizimi, Jamiyatdagi barqarorlik, Shavkat Mirziyoyev, Xalqning ishonchi, Iqtisodiy islohotlar, Ijtimoiy tizim, Rivojlanish strategiyasi, Demokratik o‘zgarishlar.

Kirish. Prezidentimiz tomonidan “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan g‘oyaning ilgari surilishi natijasida hukumat islohotlarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarini ittifoqchi sifatida ko‘ra boshladi. Bu esa

mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlarining erkin faoliyat yuritishi uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratish, qonunchilikdagi o‘zgartirish va tashabbuslarda namoyon bo‘ldi.

Keyingi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ma'muriy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, mahalliy hokimliklarning moddiy-texnik ta'minoti qayta ko'rib chiqilib, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish bo'yicha mustaqilligini amalda ta'minlashga erishildi.

Qolaversa, davlat funksiyalarini amalga oshirishda xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilish bo'yicha joriy etilayotgan islohotlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati natijadorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining o'sish tendensiyasiga ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ijrosi bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, shu sohada 200 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, NNTlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur institusional baza yaratildi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga ilk bor fuqarolik jamiyati institutlari degan alohida bob kiritildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalari ya'ni elektron ma'lumotlarni joriy etishda davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yilganligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentning 2024-yil avgust oyidagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanishiga oid tartib joriy qilindi[6].

E'tiborli jihati, davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar uzviy davom ettirilib, 2025-yil – "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasida ham ushbu yo'nalishga qaratilgan bir qator ustuvor maqsad, vazifa va chora-tadbirlar taklif etilgan.

Loyihada davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish maqsadida boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to'siqlarni qisqartirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan ish jarayonlarini optimallashtirishni nazarda tutuvchi bir qator vazifalar belgilanmoqda.

Jumladan, Davlat dasturi loyihasining 75-maqsadida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini Xalqning chinakam "ovozi"ga aylantirish uchun mahalliy Kengashlarning 300 dan ortiq funksiyalarini qayta ko'rib chiqib, ular faoliyatiga xos bo'lmaganlarini bekor qilish hamda sohaga oid qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish taklif etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal qilish bo'yicha vakolatlari kengaytirilib, Xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ammo joriy yilgi Davlat dasturi orqali ular faoliyatini yanada jonlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish ham zarur, deb hisoblaymiz.

Bilamizki, Prezidentning 2024-yil fevral oyidagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida belgilangan vazifalarni ular faoliyatiga tezroq tatbiq etish zarur. Bundan tashqari, bugungi kunda ayrim Kengash qarorlarining yopiq holatda qabul qilinishi fuqarolar va jamoatchilik e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Shu bois qonunchilikda Kengash sessiyasida ko'rilgan masalalar yuzasidan chiqariladigan qarorni "Ye-qaror" elektron tizimiga

yopiq shaklda joylashtirish Kengash deputatlari kamida uchdan ikki qismining tashabbusiga asosan amalga oshirilishi, bunda qonunchilikda alohida belgilangan holatlar mustasno ekanligini belgilash lozim[4].

Shuningdek, Davlat dasturi loyihasining 76-maqsadi doirasida mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida yo'lga qo'yish uchun hokimliklarga yuklatilgan 500 dan ortiq vazifa orasidan ular faoliyatiga xos bo'lmaganlarini bekor qilish va qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish nazarda tutilmoqda.

Albatta, quyi tizimda eng muhim bo'g'in bo'lgan hokimliklarning vazifa va funksiyalari tizimlashtirilishi fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiligi oldi olinishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hokimliklar hamda ijro organi tizimiga qilingan murojaatlarni avtomatik tarzda mas'ullarga taqsimlab beruvchi va ijro muddatini nazorat qiladigan platformani ishga tushirish darkor. Shunda fuqarolar murojaati o'z vaqtida hal etilishi, davlat xizmatchilariga nisbatan ishonch yanada ortishiga erishiladi[5].

Bugun hayotimizni raqamli texnologiyalar va turli xildagi platformalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bundan 7-8 yil oldin yuzlab kilometr masofani bosib tuman yoki viloyat markazlariga fuqaro shaxsan o'zi tashrif buyurmasa hal bo'lmaydigan ishlarni bugun ishxona yoki uydan chiqmasdan hal qilayapmiz. Bu insonlarning vaqti va mablag'ini tejash bilan birga, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi turli xil ko'rinishdagi byurokratik to'siqlarni ham bartaraf etmoqda.

Shu bois joriy yilgi Davlat dasturi loyihasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish ko'lamini kengaytirish orqali fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish maqsadida quyidagilar taklif qilingan:

- elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish;
- faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini 50 foizgacha yetkazish;
- lisenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini kamida 20 foizga qisqartirish;
- lisenziyalash va ruxsat berish hujjatlarining 50 foizini soddalashtirish;
- 300 ga yaqin davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish;
- kamida 300 ta davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish taklif qilinmoqda.

Albatta, yuqorida aytib o'tganimizdek, bugun mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va gumanitar sohalaridagi islohotlarni hayotga tatbiq etish hamda joylarda saqlanib qolayotgan dolzarb muammolarni hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni yuqori bo'lmoqda.

Jumladan, Davlat dasturi loyihasining 83-maqsadida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida yaqin muloqotni yo'lga qo'yish, soha va tarmoqda saqlanib qolayotgan muammolarni birgalikda hal qilish mexanizmlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, ijtimoiy sheriklikda amalga oshiriladigan loyihalar sonini kamida 3 barobarga ko'paytirish, davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini kamida 80 taga yetkazish hamda kamida 500 nafar nodavlat notijorat tashkiloti rahbarlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish shular jumlasidandir.

Ma'lumki, hududlarda ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni belgilashda mahalliy Kengashlarning o'rni yuqori. Qolaversa, nodavlat notijorat tashkilotlarining o'z hududidagi ta'sir doirasini oshirish maqsadida mahalliy Kengash sessiyalarida NNTlar ham ish tirok etish amaliyotini yo'lga qo'yish kelgusida o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2025-yilda amalga oshirishga qaratilgan Davlat dasturi loyihasi ham Xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, xususan, davlat hokimiyati tarmoqlarining ish jarayonlarini maqbullashtirish, Parlamentning rolini yanada kuchaytirish, mahalla institutining rolini oshirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida yaqin muloqotni yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor qaratilgan[3].

Tahlil va natijalar. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar Xalqimizni rozi qilish hamda Yangi O‘zbekistonning Xalqaro maydonda keng e‘tirof etilishiga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar, olib borilayotgan pragmatik ichki va tashqi siyosatning qanchalik to‘g‘ri va samarali ekanidan dalolat beradi.

Har bir jamiyatda ro‘y berayotgan demokratik yangilanishlar va o‘zgarishlar, avvalo, Xalq boshqaruvi va jamoatchilikning islohotlardagi o‘rni bilan o‘lchanadi. Shu bois ham bu kabi jarayonlarda parlament faoliyatidagi o‘zgarish va yangilanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda keng ko‘lamli, dunyo miqyosida e‘tirof etilgan islohotlar amalga oshirildi. Quvonarlisi, ushbu jarayonlarda Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning roli kuchaytirildi, mamlakatning tashqi va ichki siyosatidagi muhim masalalar aynan parlament a‘zolarining qarorlari bilan qabul qilinishi amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Har bir davrda barcha rivojlangan davlat va jamiyatlar o‘zlari uchun muhim bo‘lgan yo‘nalishlarda ma‘lum bir maqsadlarga eltuvchi strategiyani ishlab chiqadi. Misol uchun, dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniyaning ham o‘z taraqqiyot strategiyasi mavjud. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2030-yil kun tartibini qabul qilib, 17 ta Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG)ni e‘lon qilgan bir paytda, Germaniya 13 yil oldin ilgari surgan Milliy barqaror rivojlanish strategiyasiga ega edi. U 2018-yilda qayta yangilandi[1].

Shuningdek, bundan besh yil oldin O‘zbekiston ham o‘z rivojlanish tarixida yangi bir davrga qadam qo‘ydi. Ushbu davrda boshlangan islohotlarni amalga oshirish uchun esa Xalqimiz bilan bamaslahat tarzda ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi hayotga tatbiq etildi. O‘tgan davr mobaynida ushbu Strategiya asosida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Quvonarlisi, qisqa vaqt ichida Harakatlar strategiyasida ko‘zlangan maqsad va vazifalarga tahlil va raqamlar asosida emas, O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z turmush tarzida his qilgan o‘zgarishlar orqali to‘laonli erishildi. Ayni vaqtda ushbu yo‘nalishlarda boshlangan islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Jumladan, yangi muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylangan Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlagan demokratik islohotlar yo‘lini yanada qat‘iy davom ettirishga qaratilgan, asosiy maqsadi “Inson

qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bo‘lgan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosidagi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi e‘lon qilindi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishida belgilab berilgan vazifalarning hayotimizga tatbiq etilishi orqali millati, tili va dinidan qat‘i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun Xalqimizning farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – Xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilib, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil to‘laonli ro‘yobga chiqariladi[2]. Jumladan, bunda mahalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas‘uliyati yanada kuchaytiriladi. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismini markazdan hududlarga o‘tkazish nazarda tutilmoqda. Bu esa o‘tgan besh yil mobaynida “Xalq davlat idoralariga emas, Davlat idoralari Xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ezgu tamoyil asosida boshlangan demokratik o‘zgarishlar samarasini Xalqimiz yanada tezroq o‘z hayotida his qilishi imkonini beradi. Sababi, endilikda har bir maqsad va vazifani amalga oshirishda o‘tgan davrda erishilgan yutuqlar bilan birga, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklardan to‘g‘ri xulosa chiqariladi. Jumladan, Harakatlar strategiyasi doirasida Xalq bilan muloqot qilishda jamiyat boshqaruvining tayanch bo‘g‘ini bo‘lgan, islohotlar samarasi bevosita aks etadigan mahalla tizimida har bir fuqaro murojaatlari bilan ishlashning “mahallabay”, “xonadonbay” kabi mutlaqo yangi mexanizmlari joriy etildi. Endilikda esa ushbu ishlar yanada takomillashtirilib, har bir mahallani hokimliklar bilan bog‘lash maqsadida mahallalarda hokim yordamchisi lavozimi joriy etilmoqda. Bu esa, davlat rahbari ta‘kidlaganidek, joylarda rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qilishiga erishishda dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi[7]. Natijada, mahallada aholi bilan ishlash mexanizmlari takomillashadi. Hokim yordamchisi mahalla aholisi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishga mas‘ul bo‘lsa, mahalla raisi esa ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirish, oila va mahallada sog‘lom muhitni shakllantirishga javobgar etib belgilanadi.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston aholisining oltmish foizdan ortig‘ini tashkil etuvchi yoshlarning ham katta hayotga qadam qo‘yadigan ilk maskani bu mahalla ekanligi hisobga olinib, mahallalarda yoshlar masalalari bilan muntazam shug‘ullanadigan Yoshlar ishlari agentligining vakili sharti ham tashkil etiladi. Bundan tashqari, hokimliklar va mahallalarning moliyaviy imkoniyatini kengaytirish maqsadida tuman byudjeti qo‘shimcha manbalar bilan ta‘minlanib, mahallalarning alohida jamg‘armasi shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023, yangi tahrir)
2. “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” g‘oyasi asosida davlat boshqaruvini rivojlantirish to‘g‘risida” Prezident Farmoni (2024).
3. “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Farmoni (2024-yil avgust).
4. “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Farmoni (2024-yil fevral).
5. Mirziyoyev, Sh. M. – Yangi O‘zbekiston strategiyasi (2022) – Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat islohotlari, Xalqparvar siyosat va taraqqiyot strategiyasi haqida nashri.
6. B. Abdurahmonov – O‘zbekistonda davlat boshqaruvi va ijtimoiy adolat – Hukumat islohotlari va ijtimoiy tenglik masalalari haqida ilmiy tahlil.
7. Qosimov J.– O‘zbekistonda mahalliy boshqaruv tizimi va demokratik jarayonlar – Mahalla instituti va mahalliy davlat hokimiyati organlarining rivojlanish bosqichlari haqida.